

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI**

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH  
BO‘YICHA BELGILANGAN USTUVOR VAZIFALAR IJROSINI SAMARALI TASHKIL  
ETISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

Joriy yilning 5-mart kuni Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yangi tizimni joriy etib, ushbu masalaga jamoatchilik, parlament va fuqarolik jamiyati institutlarini keng safarbar etish maqsadida qaror qilaman:

1. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati va amaliy chora-tadbirlar dasturi **1** va **2-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik va idoralar rahbarlariga mazkur Farmon va uning ilovalarida belgilangan vazifalarni sifatli, o‘z vaqtida va so‘zsiz bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

2. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash har yili hududlar kesimida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, prokurorlar va ichki ishlar organlari boshliqlari bilan birgalikda korruptsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish, shu jumladan, maishiy korruptsiyaga barham berish, korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish bo‘yicha “yo‘l xarita”sini tasdiqlab, ijrosi ustidan nazoratni ta‘minlasin.

3. Korruptsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashishda parlamentning rolini tubdan oshirish maqsadida Oliy Majlis palatalariga quyidagilar tavsiya etilsin:

(a) har yili budjetdan eng ko‘p mablag‘ oladigan uchta vazirlik va idorada korruptsiyaviy omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritish;

(b) vazir va hokimlar lavozimiga nomzodlar tegishlicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlarida ko‘rib chiqilayotganda ular tomonidan korruptsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq reja himoya qilinishiga oid tartibni qonun hujjatlarida belgilash;

(v) xalqaro tajribani o‘rganib, kibermakonda korruptsiyaga qarshi samarali kurashish bo‘yicha mustahkam huquqiy baza yaratish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish;

(g) mas‘ul idoralar vakillaridan iborat ishchi guruhlar tuzgan holda “jinoyatchilikka qarshi kurashish haftaligi” davomida har oyning 1 — 5 sanalarida reja asosida “qizil” toifadagi mahallalarga tushib, jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish, tuman (shahar), Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari va ichki ishlar organlari boshliqlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berish hamda tuman (shahar) va mahallalarda ilgari surilgan xalqchil tashabbuslar asosida qonunlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyati quyidagicha yangi tartib asosida yo‘lga qo‘yilsin:

(a) prokuror, ichki ishlar va soliq organlari rahbarlari sektorlar faoliyati bo‘yicha yuklatilgan vazifalardan ozod etiladi;

(b) sektorlar ishiga Bosh vazir o‘rinbosarlari va O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamda uning hududiy bo‘linmalari mas‘ul etib belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda sektorlarning yangi tartib asosida faoliyat yuritishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini kiritсин.

5. Iqtisodiyotda korruptsiyaviy omillarning oldini olish maqsadida belgilansinki:

(a) davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi hamda uning o‘rtacha bozor narxi o‘rtasidagi tafovutning eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan chegarasidan chetga chiqqan holda xaridlarni amalga oshirgan mansabdor shaxslar javobgarlikka tortiladi;

(b) 2025-yilning 1-iyulidan yirik investitsiya loyihalarida korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlar hamda yirik auksion shartlarini raqobatbardoshlik ekspertizasidan o'tkazish tartibi joriy etiladi;

(v) "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — "Shaffof qurilish" tizimi) qamrovi yanada oshirilib, bosqichma-bosqich xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi loyihalarga joriy qilinadi.

6. Mazkur Farmonning 5-bandida belgilangan topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida:

(a) Iqtisodiyot va moliya vazirligi ikki oy muddatda:

(i) davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi bo'yicha belgilangan talablarni buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun loyahasini ishlab chiqib, kiritсин;

(ii) Hisob palatasi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bilan birgalikda budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan asosiy vositalarni xarid qilish bo'yicha talablarni kuchaytirсин;

(iii) Hisob palatasi bilan birgalikda davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlarini kamida ikki karra qisqartirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyahasini kiritсин;

(b) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda uch oy muddatda yirik investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlar asosida baholash hamda yirik auksion shartlarini raqobatbardoshlik ekspertizasidan o'tkazish tartib-taomillarini belgilovchi Hukumat qarori loyahasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин;

(v) 2025-yil yakuniga qadar Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi xalqaro moliya tashkilotlar bilan birgalikda xalqaro tender obyektlari bo'yicha subpudratchilarni "Shaffof qurilish" tizimi orqali jalb qilish, qiymati 2 mln AQSH dollarigacha bo'lgan xalqaro moliya tashkilotlar hisobidan moliyalashtiriladigan mahalliy tenderlarni "Shaffof qurilish" tizimida o'tkazish hamda xalqaro tenderlar bo'yicha jalb qilingan chet el pudrat tashkilotlari shartnoma qiymatining kamida 60 foizini o'z kuchi bilan bajarish tartibini joriy etish choralari ko'rsin;

(g) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi "Shaffof qurilish" tizimini xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi loyihalarga joriy etish uchun ushbu tizimda tegishli imkoniyatlarni yaratsin.

7. Vazirlar Mahkamasi 2026-yil 1-yanvarga qadar vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar tomonidan ko'rsatiladigan barcha davlat xizmatlarini tuman (shahar) kesimida aholining o'zi baholaydigan tizimni joriy etsin.

Bunda aholi tomonidan "qoniqarsiz" deb baholangan davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi vazirlik, idora rahbarlari hamda tuman (shahar) hokimlarining shaxsiy javobgarligi belgilansin.

8. Adliya vazirligi:

(a) bir oy muddatda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda sun'iy intellekt asosida aholining kundalik hayotida uchraydigan savollariga mobil telefon orqali sodda va qulay shaklda javob olish imkoniyatini beradigan onlayn platformani ishga tushirсин;

(b) Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar tomonidan ko'rsatiladigan barcha davlat xizmatlarini tuman (shahar) kesimida aholining o'zi baholaydigan yangi tizimni joriy etishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyahasini ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritсин;

(v) uch oy muddatda Advokatlar palatasi bilan birgalikda fuqarolarga sifatli yuridik yordam ko'rsatishida advokatlar faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etishga qaratilgan qonun loyahasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

9. Mazkur Farmonda belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchilari D.B. Kadirov va R.Q. Davletovlar zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,

2025-yil 21-aprel,  
PF-71-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmoniga  
1-ILOVA

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar**

**RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Ishlab chiqiladigan loyiha</b>	<b>Loyihaning mazmuni</b>	<b>Muddati</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
	“Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini <b>deklaratsiya qilish to'g'risida</b> ”gi <b>qonun loyihasi</b> .	Loyihada deklaratsiya <b>subyektlari, obyektlari</b> va unda aks ettiriladigan ma'lumotlar, deklaratsiyani <b>taqdim qilish shakli</b> va <b>tartibi</b> , uni <b>tekshirish tartibi</b> nazarda tutiladi.	2025-yil may	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> ), Adliya vazirligi ( <i>Tashkulov</i> ), Bosh prokuratura ( <i>Yo'ldoshev</i> )
	<b>Jinoiy daromadlarni legallashtirish</b> bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlikni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha <b>qonun loyihasi</b> .	Loyihada: jinoiy daromadlarni legallashtirish jinoyati uchun belgilangan jazo choralarini qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosib ravishda <b>qayta taqsimlash</b> ; <b>insayder</b> axborotdan foydalanish yoki <b>qimmatli qog'ozlar</b> bozorida <b>hiyla-nayrang</b> ishlatish bilan bog'liq holatlar uchun <b>ma'muriy</b> va <b>jinoiy</b> javobgarlikni belgilash; <b>ekstremizmni moliyalashtirganlik</b> uchun <b>jinoiy</b> javobgarlik kiritish masalalari nazarda tutiladi.	2025-yil may	Bosh prokuratura ( <i>Yo'ldoshev</i> ), Adliya vazirligi ( <i>Tashkulov</i> ), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> )
	Vazir va hokimlar lavozimiga nomzodlar ko'rib chiqilayotganda ular tomonidan <b>korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq reja</b> himoya qilinishi to'g'risida qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan <b>qonun loyihasi</b> .	Loyihada <b>vazir</b> va <b>hokimlar</b> lavozimiga nomzodlar tegishli Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlarida ko'rib chiqilayotganda ular tomonidan <b>korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq reja</b> himoya qilinishiga oid tartib nazarda tutiladi.	2025-yil may	Oliy Majlis palatalari ( <i>kelishuv asosida</i> )
	Fuqarolarga sifatli yuridik yordam	Loyihada <b>advokatlar faoliyatiga</b> to'sqinlik qilayotgan omillarni	2025-yil iyun	Adliya vazirligi ( <i>Tashkulov</i> ),

<p>ko'rsatilishida <b>advokatlar faoliyatiga</b> to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etishga qaratilgan <b>qonun loyihasi</b>.</p>	<p>bartaraf etishga qaratilgan mexanizmlar nazarda tutiladi.</p>		<p>Advokatlar palatasi (<i>Sadikov</i>), Oliy sud (<i>Islamov</i>), Davlat xavfsizlik xizmati (<i>Kurbanov</i>), Bosh prokuratura (<i>Yo'ldoshev</i>), Ichki ishlar vazirligi (<i>Tashpulatov</i>)</p>
<p><b>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan davlat dasturini</b> tasdiqlash to'g'risida <b>qaror loyihasi</b>.</p>	<p>Loyihada: Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha <b>2025-2026-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi</b>; korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish bo'yicha ustuvor vazifalar nazarda tutiladi.</p>	<p>2025-yil iyun</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>), Davlat xavfsizlik xizmati (<i>Kurbanov</i>), Bosh prokuratura (<i>Yo'ldoshev</i>), Ichki ishlar vazirligi (<i>Tashpulatov</i>)</p>
<p>Davlat fuqarolik xizmatida <b>ishga qabul qilish</b> jarayonlari ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, <b>davlat fuqarolik xizmatchilari reyestrini</b> belgilash, kadrlarni korrupsiyaga moyillik darajasini o'rganish bo'yicha <b>farmon loyihasi</b>.</p>	<p>Loyihada: <b>davlat xizmatchilari reyestri</b>; kadrlarning <b>korrupsiyaga moyillik darajasini</b> o'rganish tartibi; davlat xizmatchilarini <b>ishga qabul qilish</b> jarayonini ochiq va shaffof o'tkazish mexanizmlari; davlat xizmatchisining malakasi va salohiyati, erishgan natijalarini IT texnologiyalar asosida baholash, nomzodlarni lavozimga tayinlashda ularning <b>bilimi, tajribasi va erishgan natijalarini</b> asosiy mezon sifatida belgilash; vazirlik va idoralar markaziy apparatidagi rahbarlik lavozimlariga ustuvor ravishda <b>quyi bo'g'inglarda ishlagan</b>, tuman (shahar) darajasida rahbarlik lavozimlariga esa viloyat, respublika idoralarida ishlagan kadrlarni tayinlash bo'yicha yangi tizimni joriy etish nazarda tutiladi.</p>	<p>2025-yil iyun</p>	<p>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (<i>Musayev</i>), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>), Adliya vazirligi (<i>Tashkulov</i>), Raqamli texnologiyalar vazirligi (<i>Shermatov</i>)</p>
<p>Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha</p>	<p>Loyihada sektorlar faoliyati bilan shug'ullanishga <b>prokuror, ichki ishlar</b> va <b>soliq</b> organlari o'rniga</p>	<p>2025-yil iyun</p>	<p>Vazirlar Mahkamasi (<i>Aripov</i>),</p>

	sektorlar faoliyatini yangi tartibda tashkil etish bo'yicha qaror loyihasi.	Bosh vazir o'rinbosarlari, O'zbekiston mahallalari uyushmasi va ularning tizimi mas'ul etib belgilanishi nazarda tutiladi.		Bosh prokuratura (Yo'ldoshev), Ichki ishlar vazirligi (Tashpulatov), Soliq qo'mitasi (Qudbiyev), O'zbekiston mahallalari uyushmasi (Quranboyev)
	<b>Korrupsiya jinoyatlarining aniq ro'yxati</b> hamda bu borada <b>jazo choralarini kuchaytirishni</b> nazarda tutuvchi <b>qonun loyihasi</b> .	“O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Qonun qayta ko'rib chiqilib, unda: <b>korrupsiya jinoyatlarning aniq ro'yxati</b> va bu borada <b>jazo choralarini kuchaytirish</b> ; korrupsiyaning oldini olish, aholini, ayniqsa, yoshlarni bunga <b>toqatsizlik ruhida tarbiyalash, profilaktika mexanizmlarini</b> yaratish; korrupsiya haqida <b>xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish va himoya qilish</b> tartibi nazarda tutiladi.	2025-yil iyun	Oliy Majlis palatalari (Eshmuratov, Shirinov), Bosh prokuratura (Yo'ldoshev), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov), Davlat xavfsizlik xizmati (Kurbanov), Ichki ishlar vazirligi (Tashpulatov), Adliya vazirligi (Tashkulov)
	Mahalla va korxonabay ishlash tizimida yashirin iqtisodiyotning oldini olish borasida <b>soliq nazorati tadbirlarini takomillashtirish</b> bo'yicha <b>qonun loyihasi</b> .	Loyihada: soliq organlari tomonidan korxonalar yoki tadbirkorlik subyektlarida soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rish; soliqqa oid ayrim huquqbuzarliklar birinchi marta sodir etilganda tadbirkorlik subyektlarini dastlab ogohlantirish; huquqbuzarlik uch kun muddatda bartaraf etilmasa yoki takroran aniqlansa, shundan keyin soliq tekshiruvini o'tkazish tartibini joriy etish nazarda tutiladi.	2025-yil iyun	Soliq qo'mitasi (Kudbiyev), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Norqulov), Bosh prokuratura (Yo'ldoshev), Savdo-sanoat palatasi (Vahobov)
	Davlat organlari va tashkilotlarining <b>korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi</b>	Loyihada: korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining <b>mustaqilligini</b> ta'minlash;	2025-yil iyun	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov)

<p>(“komplayens-nazorat”) samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risidagi <b>qaror loyihasi.</b></p>	<p>korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo’linmalarining <b>vazifa, funksiya, vakolat va majburiyatlarini</b> aniq belgilash, shtatlar sonini belgilash mezonlarini ishlab chiqish;  majburiy tartibda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo’linmalari xodimlarining <b>malakasini oshirish;</b>  ushbu bo’linmalarning Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi oldida <b>hisobdorligini ta’minlash;</b>  tajriba tariqasida korrupsiya xavfi yuqori bo’lgan ayrim sohalarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo’linmalarini <b>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bo’ysunuviga o’tkazish</b> nazarda tutiladi.</p>		
<p>Birlashgan Millatlar Tashkilotining <b>Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga a’zo davlatlar konferensiyasini 2027-yilda O’zbekistonda o’tkazish</b> bo’yicha dasturni tasdiqlash yuzasidan Hukumat hujjati loyihasi.</p>	<p>Loyihada: 2027-yilda BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga a’zo davlatlar konferensiyasini O’zbekistonda o’tkazish bilan bog’liq tashkiliy, moliyaviy va moddiy-texnik masalalarni hal qilish nazarda tutiladi.</p>	<p>2025-yil iyun</p>	<p>Vazirlar Mahkamasi (<i>Aripov, Ko’chqorov</i>), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (<i>Norqulov</i>), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>)</p>
<p>Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan <b>budjetdan tashqari jamg’armalari hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlarni tartibga solish</b> mexanizmini joriy qilish.</p>	<p>Loyihada: 2025-yilda budget mablag’larini tejash va samaradorligini oshirish maqsadida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining budjetdan tashqari jamg’armalari hisobidan xizmat avtomobillari (maxsus avtotransport vositalari bundan mustasno), qimmatbaho yumshoq mebellar va ofis jihozlarini faqatgina Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda xarid qilish;  respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining budjetdan tashqari jamg’armalarini tartibga solish nazarda tutiladi.</p>	<p>2025-yil iyul</p>	<p>Iqtisodiyot va moliya vazirligi (<i>Qo’chqorov</i>)</p>

<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida <b>fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish</b> va <b>ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashga</b> qaratilgan <b>qaror loyihasi</b>.</p>	<p>Loyihada: BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablariga rioya qilinishini <b>monitoring qilishga nodavlat notijorat tashkilotlarni jalb qilish</b>;</p> <p>nodavlat notijorat tashkilotlari korrupsiyaga qarshi loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun har yili <b>10 milliard</b> so'm ajratish;</p> <p><b>Korrupsiyaga qarshi kurashish muammolari bo'yicha mintaqaviy tadqiqot markazini</b> tashkil etish nazarda tutiladi.</p>	<p>2025-yil iyul</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>), Adliya vazirligi (<i>Tashkulov</i>), Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyatlari institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi (<i>Xusanov</i>)</p>
<p>Yirik investitsiya loyihalarida <b>korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlarni joriy etish</b> hamda <b>yirik auksion shartlarini raqobatbardoshlik ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha qaror loyihasi</b>.</p>	<p>Loyihada: yirik investitsiya loyihalarida <b>korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlarni joriy etish</b>;</p> <p>yirik auksion shartlarini <b>raqobatbardoshlik ekspertizasidan o'tkazish tartibi</b> va mexanizmlari nazarda tutiladi.</p>	<p>2025-yil iyul</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>), Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (<i>Kudratov</i>), Raqobat qo'mitasi (<i>Turaxo'jayev</i>)</p>
<p>Respublika va mahalliy darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari faoliyatini tashkil etish va <b>samaradorligini baholash mezonlarini</b> belgilovchi qaror loyihasi.</p>	<p>Loyihada: ichki nazorat bo'linmalari xodimlarini <b>stajirovka</b> va <b>attestatsiyadan o'tkazish tartibi</b>;</p> <p>korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari rahbarlari va xodimlarini lavozimga tayinlash va ozod etishni <b>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishish tartibi</b>;</p> <p>korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari xodimlari uchun <b>kasbiy standartlar</b> va ular faoliyatining eng muhim <b>samaradorlik ko'rsatkichlari</b> nazarda tutiladi.</p>	<p>2025-yil iyul</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>), Bosh prokuratura (<i>Yo'ldoshev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
<p>Tijorat banklari tomonidan <b>imtiyozli kredit ajratish</b> faoliyatida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi.</p>	<p>Loyihada tijorat banklari faoliyatida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik, ayniqsa moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishda inson omilini cheklash hamda bu borada raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish choralarini ko'rish nazarda tutiladi.</p>	<p>2025-yil iyul</p>	<p>Markaziy bank (<i>Ishmetov</i>), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>), Adliya vazirligi (<i>Tashkulov</i>)</p>

<p><b>Davlat xaridlari</b> tizimini takomillashtirish va bu borada korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha <b>normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.</b></p>	<p>Loyihalarda: davlat buyurtmachilari tomonidan <b>to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxatini</b> qayta ko'rib chiqib, tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlarini <b>ikki karra qisqartirish;</b> <b>hokimlar zaxira jamg'armasidan to'g'ridan-to'g'ri</b> xaridlarni amalga oshirish, <b>suv obyektlarini loyihalash, davlat mulkini baholashni to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida amalga oshirishni cheklash;</b> <b>budjet va budjetdan tashqari mablag'lar</b> hisobidan asosiy vositalarni xarid qilish bo'yicha talablarni kuchaytirish; davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi hamda uning o'rtacha bozor narxi o'rtasidagi tafovutning <b>eng ko'p yo'l qo'yiladigan aniq chegarasini belgilash</b> va unga rioya etmaganlik uchun mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligini kiritish; <b>sun'iy intellekt</b> yordamida davlat xaridlarida korrupsiyaviy holatlar, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa qonunga zid holatlarni <b>barvaqt aniqlash</b> va ularning <b>oldini olish</b> bo'yicha aniq choralarni belgilash nazarda tutiladi.</p>	<p>2025-yil iyul</p>	<p>Iqtisodiyot va moliya vazirligi (<i>Qo'chqorov</i>), Oliy Majlis palatalarining mas'ul qo'mitalari (<i>Gadoyev, Nazarov</i>), Hisob palatasi (<i>Abdullayev</i>), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>), Raqamli texnologiyalar vazirligi (<i>Shermatov</i>), Adliya vazirligi (<i>Tashkulov</i>), Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (<i>Soxibnazarov</i>)</p>
<p><b>To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar</b> o'tkazilishini tartibga solish bo'yicha Oliy Majlis palatalari kengashlarining <b>qo'shma qarori loyihasi.</b></p>	<p>Loyihada <b>to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar</b> o'tkazilishini tartibga solish, yoshlarda tejamkorlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha yangi mexanizmlar nazarda tutiladi.</p>	<p>2025-yil avgust</p>	<p>Oliy Majlis palatalari (<i>Narbayeva, Ismoilov</i>), Madaniyat vazirligi (<i>Nazarbekov</i>), Oila va xotin-qizlar qo'mitasi (<i>Nurmatova</i>), Din ishlari bo'yicha qo'mita (<i>Toshboyev</i>)</p>
<p>Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning</p>	<p>Loyihalarda prokuratura organlariga normativ-huquqiy</p>	<p>2025-yil sentabr</p>	<p>Bosh prokuratura (<i>Yo'ldoshev</i>)</p>

<p>loyihalarini <b>korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish</b> bo'yicha prokuratura organlari mas'uliyatini oshirishga oid normativ-huquqiy hujjat loyihalari.</p>	<p>hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish vakolatini belgilash nazarda tutiladi.</p>		
<p>Ayrim turdagi <b>ruxsat etish xususiyatidagi hujjatlar, sertifikatlar ro'yxatini maqbullashtirish</b>, ularni rasmiylashtirishdagi <b>xarajatlarni shaffof tarzda e'lon qilib borish</b> bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihalari.</p>	<p>Loyihalarda: muvofiqlikni baholash obyektlari ro'yxatini optimallashtirish; O'zbekiston hududida nazorat qilinadigan chiqindilar, ayrim turdagi xavfli mahsulot va kimyoviy moddalar ro'yxatini maqbullashtirish; karantin, veterinariya, muvofiqlik bo'yicha ruxsatnomalar olish tartibini faqat xavf darajasi yuqori bo'lgan tovarlarga nisbatan qo'llash; veterinariya nazorati ostidagi tovarlar ro'yxatini yagona normativ hujjatga birlashtirish; bir tashqi savdo shartnomasi doirasida bir xil turdagi tovarlarga rasmiylashtiriladigan ayrim turdagi ruxsatnoma xususiyatiga ega hujjatlarni bir marotaba, biroq bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga berish; davlat nazorati idoralari, ularning laboratoriyalari, ilmiy institutlar o'zlarining rasmiy veb-saytlarida mahsulot turi bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlar, ularni o'tkazish narxi, usuli, o'rganishning eng uzoq muddati va talab etiladigan mahsulotning eng kam miqdorini ochiq e'lon qilish tartibini joriy etish nazarda tutiladi.</p>	<p>2025-yil oktabr</p>	<p>Bojxona qo'mitasi (<i>Mavlonov</i>), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi (<i>Yusupaliyev</i>), O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (<i>Jumanazarov</i>), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (<i>Norqobilov</i>), O'simliklar karantini va himoyasi agentligi (<i>Ergashev</i>), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (<i>Abduxakimov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xudayarov</i>)</p>
<p>"Shaffof qurilish" tizimini <b>xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi loyihalarga</b> bosqichma-bosqich joriy qilish bo'yicha <b>qaror loyihasi</b>.</p>	<p>Loyihada xalqaro moliya tashkilotlari bilan birgalikda xalqaro tender obyektlari bo'yicha subpudratchilarni "Shaffof qurilish" tizimi orqali jalb qilish, qiymati 2 mln AQSH dollarigacha bo'lgan xalqaro moliya tashkilotlar hisobidan moliyalashtiriladigan mahalliy tenderlarni "Shaffof</p>	<p>2025-yil dekabr</p>	<p>Iqtisodiyot va moliya vazirligi (<i>Norqulov</i>), Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi (<i>Qudratov</i>),</p>

	qurilish” tizimida o‘tkazish, xalqaro tenderlar bo‘yicha jalb qilingan chet el pudrat tashkilotlari shartnoma qiymatining kamida 60 foizini o‘z kuchi bilan bajarish tartibini joriy etish nazarda tutiladi.	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (Xidoyatov), Bosh prokuratura (Yo‘ldoshev)
--	--	---

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmoniga  
2-ILOVA

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha**

**AMALIY CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

T/r	Vazifa	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas‘ul ijrochilar
1.	<b>Sohalar kesimida korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni o‘rganish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.</b>	1. Sog‘liqni saqlash, qurilish, kadastr, soliq, migratsiya, davlat aktivlari, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik, davlat yong‘in xavfsizligi xizmatini ko‘rsatish tizimida, fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida korrupsiyaviy omillarning oldini olish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilgan ishlar holatini o‘rganish hamda takliflar tayyorlash. 2. Ishlab chiqilgan takliflarni Prezident Administratsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashiga kiritish.	2025-yil aprel — dekabr  Har oyda	Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitalari ( <i>kelishuv asosida</i> )
2.	<b>Jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha yangi tizimni yo‘lga qo‘yishda parlamentning rolini oshirish.</b>	1. Mahallalarda jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash yuzasidan Oliy Majlis palatalari, mas‘ul idoralar vakillaridan iborat ishchi guruhlarni shakllantirib, hududlarga chiqish rejasini tasdiqlash. 2. “Jinoyatchilikka qarshi kurashish haftaligi” davomida jinoyatchilik oshgan, “qizil” toifadagi mahallalarda jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va ularning sodir etilishiga imkon yaratib bergan shart-sharoitlarni o‘rganish.	2025-yil aprel  Har oyning 1 — 5 sanalari	Oliy Majlis palatalari ( <i>kelishuv asosida</i> ), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> ), Bosh prokuratura ( <i>Yo‘ldoshev</i> ), Ichki ishlar vazirligi ( <i>Tashpulatov</i> )

		<p>3. O'rganish yakunlarini Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning sayyor majlislarida muhokama qilish, kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan prokurorlar va ichki ishlar organlari, tegishli tashkilotlarga tavsiyalar berish.</p> <p>4. Hududlardan kelib tushgan takliflar asosida qonunlarni takomillashtirish yuzasidan taklif ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish choralari ko'rish.</p>	Doimiy	
3.	<b>Sun'iy intellekt</b> asosida aholining savollariga mobil telefon orqali sodda va qulay shaklda javob olish imkoniyatini beradigan <b>onlayn platformani</b> ishga tushirish.	Platforma ishlab chiqish, uning ishlashi va xavfsizligini ta'minlash, savol va javoblar mexanizmini yaratish hamda platformani ishga tushirish.	2025-yil may	Adliya vazirligi ( <i>Tashkulov</i> ), Raqamli texnologiyalar vazirligi ( <i>Shermatov</i> )
4.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar a'zolarining bilim va ko'nikmalarini oshirish.	<p>1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar a'zolari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishi uchun maxsus o'quv kurslari va o'quv kontentlarini ishlab chiqish.</p> <p>2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" platformasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar a'zolarining bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirib borish.</p>	2025-yil may  2025-yil iyun oyidan boshlab muntazam	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi ( <i>Samadov</i> ), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> ), korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar
5.	<b>Korrupsiya xavf-xatarlari yuqori bo'lgan sohalarda</b> korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etish choralari ko'rish.	<p>1. Kamida uchta sohada korrupsiyaviy omillarni aniqlash, ularni bartaraf etishga qaratilgan o'rganishlar o'tkazish.</p> <p>2. Aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, ijrosini Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashida muhokama qilib borish.</p>	2025- 2026- yillar har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> ), Hisob palatasi ( <i>Abdullayev</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar
6.	Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi	1. Investitsiya loyihalariga korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xalqaro standartlarni (Jahon savdo	2025-yil iyun	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ( <i>Kudratov</i> ),

	investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xalqaro standartlar asosida baholash tizimini yo'lga qo'yish.	tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) joriy etish. 2. Yirik investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xalqaro standartlarga muvofiq baholash mezonlarini ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Yirik auksion shartlarini raqobatbardoshlik ekspertizasidan o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish.		Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> ), Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi ( <i>Turaxujayev</i> )
7.	Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalar ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish.	Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini "Shaffof qurilish" tizimida amalga oshirishni bosqichma-bosqich joriy qilish.	2025-yil may	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi ( <i>Xidoyatov</i> ), Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ( <i>Kudratov</i> ), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> ), Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi ( <i>Turaxujayev</i> )
8.	Korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etish borasida <b>prokuratura organlari faoliyati samaradorligini oshirish va tashkiliy-huquqiy tizimini takomillashtirish.</b>	1. Prokuratura organlari tomonidan korrupsiyaviy omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy faoliyatga alohida e'tibor qaratish. 2. Bosh prokuraturaning Qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash muammolarini tahlil qilish boshqarmasi tarkibida mavjud shtat birliklari doirasida 3 ta shtat birligidan iborat korrupsiyaviy omillarni tahlil qilish bo'limi faoliyatini yo'lga qo'yish, mazkur boshqarmaning hududiy prokuraturalardagi bo'linmalarini joylarda korrupsiyaviy omillarni tahlil qilishga mas'ul etib belgilash.	2025-yil may	Bosh prokuratura ( <i>Yo'ldoshev</i> )

9.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlarning <b>maishiy va tizimli korrupsiyaviy omillarga qarshi kurashish</b> borasidagi ishlari samaradorligini oshirish.	1. Har chorakda kamida bitta sohada korrupsiyaviy holatlarni o'rganib, tahlil qilish. 2. Tahlil natijalari yuzasidan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, qonun ustuvorligi, jazo muqarrarligini ta'minlash bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashga taklif kiritish.	Har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar, vazirlik va idoralarning hududiy bo'linmalari
10.	<b>Davlat budjeti mablag'lari</b> maqsadsiz ishlatilishining oldini olish, bu borada korrupsiyaviy omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	1. Budjetdan eng ko'p mablag' oladigan uchta vazirlikda maqsadsiz xarajat, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish, qimmat narxda tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish, manfaatlar to'qnashuvi holatlarini o'rganish. 2. Aniqlangan korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlash. 3. Takliflarni Prezident Administratsiyasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashga kiritish.	Har yili  Har chorakda	Oliy Majlis palatalari ( <i>kelishuv asosida</i> ), Iqtisodiyot va moliya vazirligi ( <i>Qo'chqorov</i> ), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> ), Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi ( <i>Turaxujayev</i> )
11.	Xalq deputatlari mahalliy kengashlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari tomonidan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish faoliyatini kuchaytirish.	1. Har oyda bitta yo'nalishda korrupsiyaviy omillarni aniqlab, mahalliy kengashlar sessiyalariga masala kiritish. 2. Sessiya muhokamalaridan keyin Oliy Majlis palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul qo'mitalariga taklif kiritib borish.	Har oyda	Xalq deputatlari mahalliy kengashlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari, Senat ( <i>Narbayeva</i> ) ( <i>kelishuv asosida</i> )
12.	Soliq to'lovchilarga keyinchalik soddalashtirilgan tartibda qo'shilgan qiymat solig'ini qoplashda <b>"yashil" yo'lak</b> tartibida xizmat ko'rsatish maqsadida soliq tavakkalchiliklarini <b>baholash va insoflilik mezonlari asosida segmentlash</b> tizimini yanada takomillashtirish.	Soddalashtirilgan tartibda qo'shilgan qiymat solig'ini qoplashda "yashil" yo'lak tartibida xizmat ko'rsatish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish hamda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.	2025-yil iyun	Soliq qo'mitasi ( <i>Qudbiyev</i> ), Iqtisodiyot va moliya vazirligi ( <i>Norqulov</i> )

13.	<p><b>Mahalliy budjetlar</b> shakllanishi va sarflanishi borasidagi mahalliy kengashlar tomonidan olib borilayotgan <b>deputatlik nazorati natijadorligi</b> va <b>tashabbusli budjet</b> jarayonlaridagi holatlarni tahlil qilish.</p>	<p>1. Tanlov asosida viloyat va tuman (shahar)larda mahalliy budjetlarning shakllanishi va mablag'lari sarflanishini o'rganish.</p> <p>2. O'rganish natijalarini tegishli vazirliklar ishtirokida parlament palatalari qo'mitalarida muhokama qilish va takliflar ishlab chiqish.</p>	2025-yil sentabr	Oliy Majlis palatalari ( <i>kelishuv asosida</i> )
14.	<p>Huquq-tartibot idoralarining <b>ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari</b> tomonidan jinoyat sodir etilgan mahallalarda ilmiy yondashuvlar asosida o'tkazilgan o'rganishlar samaradorligini oshirish.</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash tomonidan Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va Milliy gvardiya tarkibidagi oliy ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son <b>qaroriga</b> asosan yuklatilgan vazifalar ijrosini eshitib, aniq chora-tadbirlar belgilab borish.</p>	Har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash ( <i>Narbayeva</i> )
15.	<p>Har bir profilaktika inspektorini <b>bodikamera</b> bilan ta'minlash va <b>huquqbuzarliklarni ro'yxatga olish bo'yicha yangi platformani</b> ishga tushirish.</p>	<p>1. Mahallalarda xizmat qiluvchi profilaktika inspektorlarini bodikamera bilan ta'minlash bo'yicha texnik tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>2. Mahallalarda xizmat olib boruvchi profilaktika inspektorlarini bodikamera bilan bosqichma-bosqich ta'minlash.</p> <p>3. Barcha mahallalar hududiga o'rnatilgan kameralarni dastlabki bosqichda profilaktika inspektorining xizmat xonasiga, keyingi bosqichda tuman (shahar), viloyat vaziyatlar markaziga integratsiya qilish.</p> <p>4. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tizimida mavjud bo'lgan barcha jinoyat va hodisalarni ro'yxatga olishga mo'ljallangan elektron platformalarni yagona platformaga birlashtirish.</p> <p>5. Yagona platformada eksterritoriallik tamoyili</p>	2025-yil may  2025-yil sentabr — dekabr	Ichki ishlar vazirligi ( <i>Tashpulatov</i> ), Raqamli texnologiyalar vazirligi ( <i>Shermatov</i> ), Iqtisodiyot va moliya vazirligi ( <i>Norqulov</i> ), Bosh prokuratura ( <i>Valiyev</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar

		<p>asosida murojaatlarni qabul qilish va ularni tegishliligi bo'yicha yuborish imkoniyatini yaratish.</p> <p>6. Yagona platformada arizalar ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi o'ziga xos raqam (QR kod) berish va u orqali murojaatning harakatlanishi (ko'rib chiqilishi bo'yicha amalga oshirilayotgan protsessual harakatlar)ni kuzatib borish imkoniyatini yaratish.</p>		
16.	<p>Tuman va mahallalardagi <b>maishiy va tizimli korrupsiyaga chek qo'yish</b>, davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson ishtiroki bilan bog'liq korrupsiyaviy omillarni, shu jumladan, qog'ozbozlikni kamaytirish va ortiqcha byurokratik yukni bartaraf etish.</p>	<p>1. Aholi va biznes uchun inson omili orqali amalga oshiriladigan davlat xizmatlarining har bir bo'g'in hamda soha kesimida reyestrini shakllantirish.</p> <p>2. Reyestr asosida korrupsiyaviy xatarlar eng ko'p sodir etilgan inson omili orqali amalga oshiriladigan davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish va onlayn shaklda amalga oshirish.</p> <p>3. Majburiy tusdagi talablar, litsenziya va ruxsat beruvchi, shu jumladan, soliq, bojxona hamda boshqa turdagi imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etishda talab etiladigan qog'oz shaklidagi hujjatlarni maqbullashtirish hamda to'liq raqamlashtirish.</p>	<p>2025-yil may</p> <p>2025-yil noyabr</p> <p>2025-yil dekabr</p>	<p>Adliya vazirligi (<i>Tashkulov</i>), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>), Bosh prokuratura (<i>Yo'ldoshev</i>) Raqamli texnologiyalar vazirligi (<i>Shermatov</i>), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>), mahalliy hokimliklar, Raqamli texnologiyalar vazirligi (<i>Shermatov</i>), Adliya vazirligi (<i>Tashkulov</i>), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>)</p>
17.	<p>Muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan <b>takroriy jinoyat</b> sodir etilishining oldini olish va ularning <b>ijtimoiylashuvini ta'minlash</b> samaradorligini oshirish.</p>	<p>Muqaddam sudlangan va ma'muriy nazoratdagi shaxslar bilan ishlash natijadorligini oshirish. Bunda:</p> <p>har bir mahalladagi mazkur toifadagi shaxslar bo'yicha manzilli ishlash rejalarini tasdiqlash;</p> <p>haftada kamida bir marotaba ularning holidan xabar olish;</p>	<p>2025-yil may</p> <p>Doimiy</p>	<p>O'zbekiston mahallalari uyushmasi (<i>Kuranbayev</i>), Ichki ishlar vazirligi (<i>Tashpulatov</i>), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi</p>

		ularni kasbga o'qitish va yo'naltirish choralari ko'rish.		(Zaxidov)
18.	Aholi va tadbirkorlar tomonidan "bir tugmali" vizual elektron dastur orqali davlat xizmatchisining sifatli va korrupsiyasiz xizmat ko'rsatganini joyida baholab borish tizimini yo'lga qo'yish.	<p>1. Davlat xizmatchisi sifatli va korrupsiyasiz xizmat ko'rsatganligini "bir tugmali" vizual elektron baholash imkonini beruvchi maxsus dasturiy ta'minotni ishlab chiqish.</p> <p>2. Qayta aloqa orqali olingan ma'lumotlarni davlat xizmatchisi faoliyati asosiy samaradorlik ko'rsatkichi (KPI) sifatida belgilash.</p> <p>3. Davlat tashkiloti va davlat ulushi bo'lgan korxonalarda maxsus dasturiy ta'minot o'rnatilgan infokiosklarni birinchi galda sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xizmatlar, qurilish, soliq, bojxona idoralarida, davlat xizmatlari markazlarida o'rnatish va ishga tushirish.</p>	<p>2025-yil iyun</p> <p>2025-yil sentabr</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi (Shermatov), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov)</p> <p>Vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov)</p>
19.	Qonunlarda korrupsiyaga sharoit yaratuvchi normalarning oldini olish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish.	<p>1. Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi o'z vaqtida va sifatli ta'minlanishini tahlil qilish.</p> <p>2. Qonun loyihalarida korrupsiyaga sharoit yaratuvchi normalar mavjud emasligi, shu jumladan, loyihaning "Raqobat to'g'risida"gi <b>Qonunga</b> muvofiqligiga alohida e'tibor qaratish.</p>	Doimiy	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida)
20.	<b>Nazorat inspeksiyalari</b> faoliyatida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan ishlar natijadorligini baholab borish.	Har oyda Vazirlar Mahkamasi yig'ilishlarida bittadan nazorat inspeksiyalari faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqib, ularning o'z tizimi va nazorat obyektida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan ishlar natijadorligi bo'yicha hisobotini eshitib borish tizimini yo'lga qo'yish.	Reja-grafik asosida	Vazirlar Mahkamasi (Aripov)
21.	<b>Kibermakonda korrupsiyaga qarshi</b> samarali kurashish bo'yicha yangi mexanizmlarni ishlab chiqish.	Xalqaro tajriba asosida kibermakonda korrupsiyaga qarshi samarali kurashish bo'yicha yangi mexanizmlarni	2025-yil avgust	Oliy Majlis palatalari (Qozixonova, Abdullayev),

		joriy qilishga oid takliflar ishlab chiqish.		Ichki ishlar vazirligi (Tashpulatov), Davlat xavfsizlik xizmati (Kurbanov), Bosh prokuratura (Yo'ldoshev), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov)
22.	<b>Fuqarolik jamiyati institutlarining</b> korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish va samaradorligini oshirish.	1. Nodavlat notijorat tashkilotlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish mavzularida har yili 10 mlrd so'mlik grantlar va ijtimoiy buyurtmalarning yillik ro'yxatini shakllantirish. 2. Ro'yxat asosida ochiq tanlov orqali tadqiqot o'tkazuvchi nodavlat notijorat tashkilotlarni tanlash. 3. Tadqiqot natijalarini e'lon qilish va amaliyotga joriy etish bo'yicha vazirlik va idoralarga kiritish.	Yil davomida	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov), O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi (Ishanxodjayev)
23.	“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda <b>ijtimoiy profilaktika tizimi</b> samaradorligi va natijadorligini oshirish choralari ko'rish.	1. “Mahalla yettiligi” a'zolarini ularning ijtimoiy profilaktika bo'yicha bilimlarini oshirish maqsadida o'qitish. 2. Ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish.	2025-yil may-iyun	O'zbekiston mahallalari uyushmasi (Kuranbayev), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (Zaxidov), Ichki ishlar vazirligi (Tashpulatov), Yoshlar ishlari agentligi (Sa'dullayev), Oila va xotin-qizlar qo'mitasi (Nurmatova)
24.	Budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan <b>asosiy vositalarni xarid qilish</b> bo'yicha talablarni kuchaytirish.	1. Vazirlik, idoralar va mahalliy hokimliklarda 2025-yilda zarur bo'ladigan asosiy vositalarga bo'lgan haqiqiy ehtiyojni o'rganish.	2025-yil may	Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Qo'chqorov), Hisob palatasi (Abdullayev), Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi

		<p>2. Ichki audit xizmati hamda komplayens nazoratining xaridning qonuniyligi hamda asosliliği bo'yicha bergan xulosalaridan so'ng asosiy vositalar xaridini amalga oshirish tartibini belgilash.</p> <p>3. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Soliq qo'mitasi, Milliy statistika qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligining axborot bazalarini o'zaro integratsiya qilgan holda Iqtisodiyot va moliya vazirligining Davlat xaridlari sohasida foydalaniladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) milliy klassifikatoriga barcha tovar kodlarini muvofiqlashtirish.</p>	<p>2025-yil may — dekabr</p> <p>2025-yil iyul</p>	<p>kurashish departamenti (<i>Soxibnazarov</i>) Hisob palatasi (<i>Abdullayev</i>), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (<i>Raximova</i>), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>)</p> <p>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (<i>Xidoyatov</i>), Soliq qo'mitasi (<i>Kudbiyev</i>), Milliy statistika qo'mitasi (<i>Hamrayev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xudayarov</i>), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (<i>Raximova</i>)</p>
25.	To'y-hasham, ma'raka va marosimlardagi isrofgarchiliklarning oldini olish.	<p>1. To'y-hasham, ma'raka, marosimlarda ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik maqsadida ijtimoiy roliklar ishlab chiqish, ularni ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish.</p> <p>2. Ortiqcha isrofgarchilikning oldini olish borasida keng qamrovli tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borish.</p>	Yil davomida	<p>AOKA (<i>Xodjayev</i>), O'zMTRK (<i>Djuraboyev</i>), "Yuksalish" harakati (<i>Bekmurodov</i>), O'zbekiston mahallalari uyushmasi (<i>Kuranboyev</i>), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<i>Burxanov</i>) O'zbekiston mahallalari uyushmasi (<i>Kuranboyev</i>), "Nuroniy" jamg'armasi (<i>Turdiyev</i>), O'zbekiston musulmonlari idorasi</p>

		3. Ortiqcha isrofgarchilikning zararlari haqida qisqa metrajli film, ijtimoiy reklama, ko'rsatuv, eshittirish, podkastlar, maqolalar orqali targ'ibot ishlarini amalga oshirish.		(Xoliqnazarov) Madaniyat vazirligi (Nazarbayev), AOKA (Xodjayev), O'zMTRK (Djuraboyev), Kinematografiya agentligi (Rizayev), "Yuksalish" harakati (Bekmurodov), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov)
26.	Vazirlik va idoralarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalariga tayinlangan yangi xodimlar salohiyatini oshirish.	1. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalariga tayinlangan yangi xodimlarning "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi"da korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishga qaratilgan maxsus chuqurlashtirilgan o'quv kurslarida malakasini oshirish. 2. Vazirlik va idoralarni poraxo'rlikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartni tatbiq etish bo'yicha uslubiy materiallar bilan ta'minlash.	2025-yil may-iyun  2025-yil iyul	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov), Huquqni muhofaza qilish akademiyasi (Samadov), vazirlik va idoralar
27.	Korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa ekanligi, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish hamda bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida aholi orasida tushuntirish ishlarini olib borish.	1. Saylovchilar bilan uchrashuvlar davomida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan vazifalar ahamiyati yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish. 2. Uchrashuvlarda tinchlik va barqarorlikni qadrlash, to'y-hasham, ma'raka va marosimlarda ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, halollik, shukronalik bilan hayot kechirish muhimligiga alohida e'tibor qaratish.	Har oying oxirgi haftasi	Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Xalq deputatlari mahalliy kengashlari
28.	Tijorat banklari tomonidan jismoniy va	Tijorat banklari va ularning filiallarida korrupsiyaviy	2025-yil iyul	Oliy Majlis palatalari

	<p>yuridik shaxslarga imtiyozli kredit ajratishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish.</p>	<p>omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish, shu jumladan, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omilini cheklash, bu borada raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.</p>		<p>(kelishuv asosida), Markaziy bank (Ishmetov), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov), Adliya vazirligi (Tashkulov)</p>
29.	<p><b>“Korrupsiya — kelajakka tahdid”</b> g'oyasi asosida yoshlar qalbida joy oladigan tizim yaratish.</p>	<p>1. Tarbiya fani doirasida o'g'il-qizlarga halollik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g'oyalarni sodda tilda tushuntirib borish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>2. Talaba-yoshlarning korrupsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar holatini o'rganish, takliflarni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashga kiritish.</p> <p>3. “Aksilkorrupsiya volontyorlik faoliyati” loyihasini yo'lga qo'yish.</p> <p>4. “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, o'quvchilari va talabalarining maxsus dasturlar asosida ta'lim olishlarini tashkillashtirish.</p> <p>Virtual akademiyada kamida ikki million yoshlarni ularda halollik, qonunga itoatkorlik munosabatini shakllantirishga qaratilgan dastur bo'yicha o'qitish.</p>	<p>2025-yil avgust</p> <p>Yil davomida</p>	<p>Oliy Majlis palatalari (kelishuv asosida), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), manfaatdor vazirlik va idoralar</p> <p>Yoshlar ishlari agentligi (Sa'dullayev), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), Huquqni muhofaza qilish akademiyasi (Samadov), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov)</p>

30.	Aholi gavjum boʻlgan joylarda qisqa raqamlar va murojaat qilish boʻyicha chaqiriqlarni joylashtirish (“Korrupsiya haqida xabar ber — adolatni taʼminla!” axborot kampaniyasi).	<p>1. Davlat xizmatlari markazlari, sogʻliqni saqlash, taʼlim muassasalari, bozorlar, vokzal, aeroport va boshqa aholi gavjum boʻlgan joylarda qisqa raqamli “ishonch telefonlari” haqidagi maʼlumotlarni joylashtirish.</p> <p>2. Korrupsiya haqida xabar berish yoʻllari haqidagi plakatlar, LED ekranlarda videoroliklar va boshqa axborot materiallarini tarqatish.</p> <p>3. Telegram-bot, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali korrupsiya haqida xabar berish imkoniyatini yaratish.</p>	2025-yil iyul	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> ), AOKA ( <i>Xodjayev</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar, hokimliklar
31.	Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori boʻlgan lavozimlardagi davlat xizmatchilarining malakasini oshirish.	<p>Davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori boʻlgan davlat xizmati lavozimlarida faoliyat koʻrsatuvchi xodimlar uchun “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” orqali maxsus chuqurlashtirilgan oʻquv dasturlari asosida malaka oshirish mashgʻulotlarini oʻtkazish.</p> <p>Sogʻliqni saqlash, bandlik, bank sohalaridagi tegishli lavozimlardagi xodimlar uchun alohida maxsus chuqurlashtirilgan oʻquv kurslarini ishlab chiqish va oʻtkazish.</p>	2025-yil davomida	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi ( <i>Samadov</i> ), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> ), vazirlik va idoralar
32.	Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Senati huzuridagi Yoshlar parlamentlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi rolini oshirish (“Yoshlar — korrupsiyaga qarshi harakat yetakchilari” tashabbusi).	<p>1. Yoshlar parlamenti aʼzolarini korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha qonunchilik takliflari ishlab chiqishga, mahalliy davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha monitoring ishlariga jalb etish.</p> <p>2. Yoshlar parlamenti aʼzolari uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid maxsus trening va seminarlar tashkil etish.</p>	Doimiy	Oliy Majlis palatalari ( <i>kelishuv asosida</i> ), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> ), Yoshlar ishlari agentligi ( <i>Saʼdullayev</i> )
33.	BMTning <b>Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi</b> talablari bajarilishini monitoring qilishga	Korrupsiyaga qarshi konvensiya talablari bajarilishini monitoring qilishga nodavlat notijorat	2025-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ( <i>Burxanov</i> ),

	nodavlat notijorat tashkilotlarni jalb etish.	tashkilotlar vakillarini jalb qilish, ular tomonidan muqobil baholash mexanizmlarini joriy etish.		Bosh prokuratura (Yo'ldoshev), O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi (Ishanxodjayev)
34.	<b>“Vijdon”</b> videoloyhasini yo'lga qo'yish hamda loyiha orqali aholining huquqiy savodxonligini oshirish, shu jumladan, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik kayfiyatini shakllantirishga qaratilgan videoroliklar ishlab chiqish.	“Vijdon” videoloyhasi doirasida tasvirga olinadigan videoroliklar ssenariysini ishlab chiqish, ssenariy asosida videoroliklar tasvirga olish va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqatish.	2025-yil may-iyun	Adliya vazirligi (Tashkulov), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov), O'zMTRK (Djuraboyev)
35.	<b>“Transparency International” reytingida</b> O'zbekiston o'rnini yaxshilash choralari ko'rish.	1. Reytingning har bir indikatoriga tegishli vazirlik va idoralarni mas'ul etib belgilash, mazkur reytingda O'zbekiston ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha “yo'l xaritasi”ni tasdiqlash. 2. “Yo'l xaritasi” ijrosini doimiy nazorat qilib, ijrosi ta'minlanmagan topshiriqlar yuzasidan mas'ullarga nisbatan tegishli choralar ko'rish.	2025-yil iyun	Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi (Narbayeva), Adliya vazirligi (Tashkulov), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov), Bosh prokuratura (Yo'ldoshev)
36.	<b>Noqonuniy boylik orttirganlik</b> uchun javobgarlikka tortishning ilmiy-huquqiy asoslarini tahlil qilish va takliflar ishlab chiqish.	Noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlik belgilangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, bu borada olimlar, amaliyotchilar hamda jamoatchilik fikr va xulosalarini tahlil qilish. O'rganish va tahlillar yakuni bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqish va Prezident Administratsiyasiga kiritish.	2025-yil sentabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (Burxanov), Bosh prokuratura (Yo'ldoshev), Davlat xavfsizlik xizmati (Kurbanov), Adliya vazirligi (Tashkulov)

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.04.2025-y., 06/25/71/0366-son)